

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA PEDAGOGIK MAS'ULIYAT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi,
Andijon davlat pedagogika insitituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar roli tahlil qilinadi. Pedagogik mas'uliyat mazmuni, tarkibiy qismlari, ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari, shuningdek, interaktiv metodlar, multimedia vositalari va raqamli ta'lim platformalarining samaradorligi yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki zamonaviy texnologiyalar yordamida pedagogik ko'nikmalar tez va sifatli rivojlantiriladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik mas'uliyat, tarbiyachi pedagogik ko'nikmalari, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, raqamli platformalar, ta'lim jarayoni.

Аннотация. В данной статье анализируется роль современных технологий в развитии навыков педагогической ответственности у будущих воспитателей. Рассматриваются содержание и структурные компоненты педагогической ответственности, механизмы формирования соответствующих навыков, а также эффективность интерактивных методов, мультимедийных средств и цифровых образовательных платформ. Результаты исследования показывают, что с использованием современных технологий педагогические навыки формируются быстрее и более качественно.

Ключевые слова: педагогическая ответственность, педагогические навыки воспитателя, инновационные технологии, интерактивные методы, цифровые платформы, образовательный процесс.

Abstract. This article analyzes the role of modern technologies in developing pedagogical responsibility skills in future educators. The study explores the content and structural components of pedagogical responsibility, the mechanisms for developing these skills, as well as the effectiveness of interactive methods, multimedia tools, and digital learning platforms. The research findings indicate that pedagogical skills are developed more quickly and effectively through the use of modern technologies.

Keywords: pedagogical responsibility, educators' pedagogical skills, innovative technologies, interactive methods, digital platforms, educational process.

Kirish. Hozirgi zamon ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarning mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogika oliy ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik mas'uliyat tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faollik va vijdoniy yondashuvni ham o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonning samaradorligi bo'lajak tarbiyachining kasbiy tayyorgarligiga, o'quvchilar bilan ishlashdagi muvaffaqiyatiga, tarbiyaviy ishlar sifatiga bevosita bog'liq. Shu sababli zamonaviy texnologiyalar yordamida pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Pedagogik mas'uliyatni – bu bo'lajak tarbiyachining kasbiy faolyatiga vijdonan yondashuvi, vazifalarini samarali bajarishi, o'quvchi va tarbiyalanuvchi bilan munosabatidagi qat'iyatli va axloqiy yondashuvdir. U bir necha tarkibiy qismlardan iborat.

1. **Kasbiy javobgarlik** – tarbiyachi o‘z vazifalarini sifatli bajarish va natijalari uchun javob berishga tayyor bo‘lishi.
2. **Axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalar** – talabalar bilan muloqotda etik qoida va axloqiy tamoyillarni qo‘llash.
3. **Ijodiy va tanqidiy fikrlash** – pedagog muamolarni inovatsion yondashuv bilan hal etish, o‘quv jarayonini doimiy rivojlantirish.
4. **Mustaqil ish va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalari** – pedagogik vazifalarni o‘z mustaqil qarorlariga tayangan holda hal qilish.

Pedagogik mas’uliyatni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning yana bir muhim yo‘nalishi

Bugungi ta’lim jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik mas’uliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda **zamonaviy texnologiyalar va pedagogik metodlar** muhim ahamiyatga ega. Ular pedagogik jarayonni interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi hamda talabalarni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi.

Interaktiv metodlar – guruh ishlari, muammoli vazifalari, rolli o‘yinlar va forumlar orqali talabalarning faolyatini kuchaytiradi. Bu metodlar yordamida talaba o‘z fikrini erkin ifoda etadi, guruh bilan ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga pedagogic mas,uliyatni yanada mustaxkamlaydi. Misol uchun, rolli o‘yinlar orqali talaba turli pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qiladi va real ish sharoitiga tayyorlanadi.

Multimedia vositalari va animatsiyalar – murakkab pedagogik jarayonlarni vizualizatsiya qilishda samarali vosita hisoblanadi. Video darslar, interaktiv taqdimotlar, animatsiyalar va vizual materiallar murakkab nazariy tushunchalarni tushunarli qiladi, talabaning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Shu bilan birga, animatsion simulyatsiyalar orqali talaba xatolarni xavfsiz muhitda tahlil qiladi va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Raqamli platformalar va virtual laboratoriyalar – pedagogik jarayonni yanada interaktiv qiladi. Moodle, Google Classroom, Kahoot va boshqa platformalar yordamida talabalar o‘z vaqtida mashg‘ulotlarni bajaradi, test va loyihalarni amalga oshiradi. Virtual laboratoriyalar esa real hayotiy vaziyatlarni takrorlaydi va talabalar amaliy pedagogik ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Mustaqil ilmiy izlanishlar va loyiha ishlari – orqali talaba o‘z pedagogik qarorlarni mustaqil qabul qilishni o‘rganadi. Maqola yozish, seminarlar va mini – darslarni tayyorlash orqali pedagogik mas’ulyat ko‘nikmalari yanada mustahkamlanadi. Agar bu faoliyat zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilsa, pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish tez va samarali bo‘ladi.

Pedagogik mas’uliyatni rivojlantirishda ta’lim muhitining tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Oliy ta’lim muassasasida yaratilgan ijtimoiy-pedagogik muhit talabalarning kasbiy qadriyatlarini, axloqiy me’yorlari va mas’uliyat hissining shakllanishiga bevosita ta’sir

ko'rsatadi. Talabalarni jamoaviy faoliyatga jalb etish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishga rag'batlantirish hamda kasbiy muammolarni birgalikda hal qilish jarayoni ularda pedagogik mas'uliyatni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, talabalarda pedagogik mas'uliyatni rivojlantirishda o'qituvchining shaxsiy namunasi ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'z faoliyatida yuqori darajadagi kasbiy madaniyat, pedagogik etika va mas'uliyatni namoyon etishi orqali talabalar uchun ijobiy namuna bo'lib xizmat qiladi. Natijada talabalar o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan jiddiy va mas'uliyatli yondashishni o'rganadilar.

Tahlillar va natija. Mazkur tadqiqot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi taxlili qilindi. Tadqiqot davomida pedagogika insitutida tahsil olayotgan talabalar bilan suhbat, kuzatish, pedagogik tahlil va amaliy mashg'ulotlar natijalari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda pedagogik vaziyatlarni chuqurroq anglashga, muammoli holatlarni mustaqil hal etishga va o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishga intiladi. Shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida talabalar bilan olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan bo'lajak tarbiyachilar bolalar bilan ishlashda mas'uliyatliroq, tashabbuskoroq va ijodkor bo'lib shakllanadi. Ular mashg'ulotni rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va pedagogik vaziyatlarni boshqarishda faol ishtirok etadi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmalarining shakllanganligini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni quyidagi ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

- pedagogik mas'uliyat hissi shakllanadi;
- kasbiy bilim va ko'nikmalari rivojlanadi;
- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati oshadi;
- pedagogik amaliyot samaradorligi ortadi;
- talabalarining kasbiy kompetensiyasi mustahkamlanadi;
- ta'lim jarayonida qiziqish va faollik kuchayadi;

Umuman olganda olib borilgan tahlillar va olingan natijalar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni pedagogika insitutlarida keng joriy etish bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishni ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirish, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish va malakali tarbiyachilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarbiyachida pedagogik mas'uliyat ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

hisoblanadi. Pedagogik mas'uliyat tarbiyachining kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutib, uning bolalar bilan ishlashdagi yondashuvi, pedagogik qaror qabul qilishi, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi va kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli pedagogika insitutlarida bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyalash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Selevko G.K. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Moskva; Narodnoe obrazovanie, 2018.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari. – Toshkent; 2018-2023
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
6. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
7. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Sano-standart, 2017.

